

## IJTIMOYIY XODIMLARNING KASBIY FAOLLIGI VA JAMIYATGA TA'SIRI

**Negmatov Shahzod Avaz o'g'li**

*Axborot Texnologiyalari va Menejment Universiteti*

*Defektologiya yo'nalishi 4- kurs talabasi*

*shahzodnegmatov021@gmail.com*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada ijtimoiy himoya tizimida ijtimoiy xodimlarning kasbiy faolligi, ularning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni va ahamiyati ilmiy nuqtayi nazardan yoritilgan. Unda ijtimoiy xizmatlar tizimida kechayotgan islohotlar, innovatsion yondashuvlar, samarali amaliyotlar hamda aholining ehtiyojlarini aniqlash va ularga manzilli yordam ko'rsatishning zamonaviy mexanizmlari tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** *Ijtimoiy xodim, ijtimoiy himoya, kasbiy faollik, mahalla bilan ishlash, innovatsion yondashuv, ijtimoiy xizmatlar, jamiyat barqarorligi, ijtimoiy islohotlar.*

Ijtimoiy himoya tizimi bugungi kunda davlat siyosatining eng muhim yo'nalishlaridan biri sifatida ahamiyat kasb etmoqda. Aholining turli qatlamlari bilan ishlash, ijtimoiy yordamga muhtoj shaxslarni qo'llab-quvvatlash, oila va mahalla muhitidagi muammolarni barvaqt aniqlash bularning barchasi ijtimoiy xodimlarning kundalik faoliyatini tashkil etadi. Shu nuqtayi nazardan, ijtimoiy xodimlarning kasbiy faolligi, ijodkorligi va samarali tajribalarini keng jamoatchilikka yetkazish muhim sanaladi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy himoya islohotlari ijtimoiy xodimlardan yangicha yondashuv, yuqori mas'uliyat va professional ko'nikmalarni talab etmoqda. Demak oldimizda savol tug'uladi, ijtimoiy xodimlar faoliyatida nimalar aks etgan?

1. Aholining ehtiyojlarini o'rganadi;
2. Oilalar bilan muntazam ishlaydi;
3. Ijtimoiy xizmatlarni manzilga yetkazadi;
4. Mahalla va ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda ishlaydi;
5. Real muammolarni o'z vaqtida aniqlab, ularni bartaraf etishda ko'mak beradi.

Ayniqsa, ehtiyojmand oilalar, nogironligi bo'lgan shaxslar, yolg'iz keksalar, voyaga yetmagan farzandi bilan qolgan ayollar bilan ishlash jarayonida ijtimoiy xodimning mas'uliyati juda yuqori bo'ladi. Ularning har bir holatga alohida yondashuvi, insoniylik va tenglik tamoyillariga asoslangan faoliyati jamiyat barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ijtimoiy xodim faoliyati ijtimoiy pedagogika, psixologiya, menejment va ijtimoiy ish nazariyalariga tayanadi. U o'z ishida shaxsning psixologik xususiyatlarini, oilaviy muhitni, ijtimoiy omillarni hamda jamiyatdagi strukturaviy jarayonlarni kompleks tahlil qiladi. Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy xizmat ko'rsatish jarayonida: tizimli yondashuv, individual yondashuv, ko'p tarmoqli hamkorlik, innovatsion metodlar muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda ijtimoiy xodim faqat yordam ko'rsatuvchi emas, balki



profilaktika olib boruvchi, maslahatchi, vositachi, monitoring yurituvchi hamda integratsiya jarayonlarini boshqaruvchi mutaxassis sifatida qaralmoqda.

Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, 2025-yil 1-yanvar holatiga O'zbekistonda nogironligi bo'lgan shaxslar soni 1,02 million kishini tashkil etadi. Demak ko'rinib turibdiki ushbu nogironligi bo'lgan shaxslarni bandligini ta'minlash, ularni qo'llab quvvatlash soha vakillaridan mashaqqatli mehnatni talab etadi. Prezident Sh.Mirziyoyev 2021-yil 6-noyabr kuni inauguratsiya marosimidagi nutqida: "Ijtimoiy himoya sohasida boshqaruv tizimi isloh qilinib, ijtimoiy xizmatlarning sifati yaxshilanadi va ko'lami kengaytiriladi", deb aytgan edilar. Hozirda ushbu tizimning takomillashganiga quyidagilarni misol qilib aytishimiz mumkin. Masalan:

ijtimoiy xizmatlar tizimini raqamlashtirish;  
ehtiyojmand oilalarni aniqlashning shaffof mexanizmlarini joriy etish;  
mahallalarda ijtimoiy xizmatlar uchun yangi vakolatlar yaratish;  
xodimlar malakasini muntazam oshirish dasturlarini yo'lga qo'yish;  
real hayotiy keyslar asosida xizmatlar takomillashtirilishlar shular jumlasidandur.

Bu islohotlar ijtimoiy xodimlarning professional faolligini kuchaytirishga, aholiga ko'rsatiladigan xizmatlar sifatini yaxshilashga qaratilgan.

Xulosa qilib aytganimizda ijtimoiy xodimlar faoliyati bu faqat kasb emas, balki insoniylik, mas'uliyat, mehr va fidoyilik talab qiladigan yo'nalishdir. Ularning kasbiy faolligi ijtimoiy xizmatlarning sifatini oshiradi, ehtiyojmand shaxslarga ko'rsatilayotgan yordamning samaradorligini ta'minlaydi va jamiyatda insonparvarlik tamoyillarini kuchaytiradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Khalikov, A. K. (2023). SCIENTIFIC-THEORETICAL FOUNDATIONS OF SOCIAL ADAPTATION OF YOUNG GRADUATES WITH VISUAL IMPAIRMENTS IN LIFE. *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*, 253-264.
2. Qahramonovich, X. A. (2023). KO'RISHIDA NUQSONI BO'LGAN BITIRUVCHI YOSHLARNI MUSTAQIL HAYOTDA IJTIMOIIY MOSLASHUVINI AMALGA OSHIRISHDA PEDAGOGIK HAMKORLIK. *Science and innovation*, 2(Special Issue 12), 561-563.
3. Qahramonovich, X. A. (2026). VOCATIONAL GUIDANCE OF YOUNG PEOPLE IN THE CONTEXT OF INCLUSIVE EDUCATION. *Shokh Articles Library*, 1(1), 563-566.
4. Khalikov, A. (2024). PROFESSIONAL FAULTS IN THE ACTIVITY OF A TEACHER. *Science and innovation*, 3(B9), 61-63.
5. Khalikov, A. (2023). PRINCIPLES AND METHODS OF INCREASING TEACHING EXCELLENCE IN THE MODERN EDUCATIONAL SPACE. *Science and innovation*, 2(B11), 164-167.
6. Khalikov, A. (2023). COMMUNICATIVE METHODS OF COMMUNICATION WITH STUDENTS. *Science and innovation*, 2(B11), 491-494.





7. Khalikov, A. (2023). THE SET OF ABILITIES THAT CHARACTERIZE THE “PEDAGOGICAL SKILL” OF A TEACHER. *Science and innovation*, 2(B11), 160-163.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi ma’lumoti

9. <https://daryo.uz/2021/11/06/shavkat-mirziyoyevning-inauguratsiya-marosimida-sozlagan-nutqi>.

